
DXX raisi kubogi tuman g'olibi aniqlandi

Yoshlar qudrati davlatimizning ertangi kuni, yangi O'zbekistonimizning poydevori sanaladi. Zero, ularning sog'lom va komil inson bo'lib voyaga yetishlari mamlakat istiqbolini belgilab beradi.

□ Rishton tumanida o'tkazilgan DXX raisi kubogi bahslarida tumanimizning barcha mahalla jamoalari ishtirok etishdi. Bugun musobaqaning hal qiluvchi o'yini bo'lib o'tdi. Final o'yinida oldingi bosqichlarda muvaffaqiyat qozongan "Buston" va "Guliston" mahallalaridagi yoshlardan iborat jamoalar to'p surdilar. Murosasiz bahslarda "Buston" mahallasining yoshlari 1:0 hisobida g'alaba qozonishdi va tuman chempioni sifatida musobaqaning viloyat bosqichiga yo'llanma oldi. G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

????Ta'kidlash lozimki, DXX kubogini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad yoshlar orasida sportni ommalashtirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

2022-05-28 09:20:39